

Amaliy mashg'ulot-8

Mavzu: Qushlarning ekologiyasi va yashash muhiti

Darsning maqsadi: Talabalarga qushlarning ekologik xususiyatlari, yashash muhiti, ularning muhitga moslashuvi hamda tabiatdagi ahamiyatini o'rgatish.

Kerakli jihozlar: Qushlarning rasmlari, plakatlari va sxemalari, Preparatlar (pat, tumshuq, tuxum qobig'i, panja namunasi), O'quv va ma'lumotnoma adabiyotlar (ornitologiya, ekologiya bo'yicha), Namuna kolleksiyalari (turli muhitda yashovchi qushlar fotosuratlari), lupa

Nazariy tushuncha:

Qushlarning ekologiyasi va yashash muhiti juda keng va rang-barangdir. Ular yer sharining deyarli barcha joylarida — o'rmonlarda, cho'llarda, suv havzalari bo'yida, tog'larda, hatto shahar va qishloqlarda ham uchraydi. Qushlar atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir tur o'z yashash joyining tabiiy sharoitlariga moslashgan. Ularning ekologiyasi ularning oziqlanishi, ko'payishi, yashash joyi, parvozi, migratsiyasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Qushlar biosferada muhim ekologik rol o'ynaydi: ular hasharotlar, kemiruvchilar, urug'lar va o'simlik mevalari bilan oziqlanib, tabiiy muvozanatni saqlashda yordam beradi. Hasharotxo'r qushlar (masalan, qaldirg'och, chug'urchiq) hasharotlar sonini kamaytiradi va qishloq xo'jaligi ekinlarini himoya qiladi. Meva va urug'xo'r qushlar (masalan, kaptar, to'tiqush) urug'larni tarqatadi, natijada o'simliklarning ko'payishiga yordam beradi. O'likxo'r qushlar (masalan, quzg'un, lochin) esa tabiatni tozalaydi, bu esa kasalliklarning tarqalishining oldini oladi. O'rmon qushlari daraxtlar orasida yashaydi, uya quradi va asosan meva hamda hasharotlar bilan oziqlanadi. Cho'l qushlari issiq va quruq iqlimga moslashgan bo'lib, kam suv bilan ham yashay oladi. Ularning tanasida suv yo'qotishni kamaytiruvchi mexanizmlar rivojlangan. Suv bo'ylarida yashovchi qushlar, masalan, o'rdak, oqqush, flamingo va g'oz, suzishga

moslashgan pardali oyoqlarga ega. Ularning tumshug‘i suvda oziq izlashga qulay shaklda bo‘ladi (1-rasm)



1-rasm. Qushlarning xilma-xilligi

Ayrim qushlar har yili ma’lum fasllarda bir hududdan boshqasiga uchib o‘tadi. Bu jarayon ko‘pincha sovuqdan qochish yoki oziq topish bilan bog‘liq. Masalan, qaldirg‘och, laylak, turna va oqqanotlar har yili issiq o‘lkalarga uchib ketib, bahorda qaytib keladi. Migratsiya qushlarning hayotiy siklining ajralmas qismidir, chunki bu ularning yashab qolishi va nasl qoldirishi uchun zarur. Qushlar tabiatda ekologik muvozanatni saqlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular o‘simliklarning ko‘payishida, zararkunandalar sonini kamaytirishda, shuningdek, tabiiy tozalash tizimi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, qushlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish,

o‘rmonlarni, suv havzalarini va cho‘l ekotizimlarini asrash har bir insonning burchidir. Agar tabiatda qushlar kamayib ketsa, bu ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Qushlar nafaqat tabiatning ajralmas qismi, balki inson hayotining go‘zallik va uyg‘unlik timsolidir.

Topshiriqlar

1–TOPSHIRIQ:

Qushlarning yashash muhiti: Qushlar qayerda yashaydi? Ularning asosiy yashash muhitlarini sanab bering va har birining qisqacha tavsifini yozing.

2–TOPSHIRIQ:

Qushlar va ularning oziqlanishi: Qushlarning oziqlanish usullarini tahlil qiling. Turli qushlar qanday ovqatlanadi va bu ularning yashash sharoitiga qanday ta'sir qiladi?

3–TOPSHIRIQ:

Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Qush nomi	Yashash muhiti	Muhitga moslashuv belgisi
O‘rdak	Suv havzalari, ko‘l va daryolar	
	Shaharlarda, daraxtlar orasida	Moslashuvchan, har xil ovqat yeydi, aqlli
Qaldirg‘och		Uzun qanotli, tez uchadi, loydan uya quradi
Turna	Botqoqlik va suvli joylar	

	Tog‘li va ochiq joylar	Kuchli tirnoqli, tez uchuvchi yirtqich
Boyo‘g‘li		Kechasi ko‘radi, jimgina uchadi
To‘ti	Tropik o‘rmonlar	
	Ochiq maydon va suv bo‘yida	Uzun oyoq va tumshuq, suvda ozuqa topadi
Chittak	Uy atroflariInsonlar bilan yaqin yashaydi	
Pingvin		Qalin patli, suzish uchun moslashgan
	Tog‘lar va keng cho‘l hududlari	Uzoqdan ko‘radi, kuchli panjali yirtqich

4–TOPSHIRIQ:

Jadvaldan 3 ta qushni tanlab, ularning moslashuv xususiyatlarini taqqoslang

5-TOPSHIRIQ:

Rasmga qarang va suv muhiti qushlarning tana tuzilishi va morfologiyasiga qanday ta’sir qilganini tahlil qiling.

